



Iqtisodiy nizolarni sudda ko'rib chiqishda advokat ishtiroki

Mallayev Normamat Ramazonovich

Yuridik fanlari nomzodi, dotsent

Panjiyev Asliddin Sharofiddinovich

Termiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiy sudlarda yuzaga keladigan nizolarni ko'rib chiqish jarayonida advokatning ishtiroki, uning asosiy vazifalari va funksiyalari yoritilgan. Shartnomaviy, moliyaviy, mulk, xalqaro va korporativ nizolar misolida advokatning mijoz manfaatlarini qonuniy himoya qilishdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, sud jarayonining turli bosqichlarida, jumladan, apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida advokat faoliyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy sud, advokat, nizolar, huquqiy himoya, sud jarayoni, apellyatsiya, kassatsiya.

Abstract: This article discusses the participation of lawyers in the resolution of disputes in economic courts, focusing on their key responsibilities and functions. It examines the role of lawyers in protecting client interests within various types of disputes, including contractual, financial, property, international, and corporate cases. The article also



analyzes the lawyer's involvement in different stages of court proceedings, including appeal and cassation instances.

Keywords: economic court, lawyer, disputes, legal protection, court proceedings, appeal, cassation.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvi, korxona va tashkilotlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning murakkablashuvi iqtisodiy sudlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari sonining ortib borishi bilan birga, ularning o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy nizolar soni ham ko'paymoqda. Bunday nizolarni qonuniy asosda hal qilish, tomonlar manfaatini muvozanatli tarzda ko'zlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda iqtisodiy sudlar muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasidagi iqtisodiy sudlar iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, tijorat subyektlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda asosiy rol o'ynaydi. Iqtisodiy sudlar tomonidan ko'riladigan masalalar asosan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq, shu jumladan, shartnoma huquqlari, moliya va kredit masalalari, mulk huquqlari va boshqa tijorat nizolarini o'z ichiga oladi. Bu nizolarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Shartnomaviy munosabatlar va ularning buzilishi bilan bog'liq nizolar:. Iqtisodiy sudlarda ko'plab ishlar shartnomalar bo'yicha yuzaga keladigan nizolarni hal qilishga qaratilgan. Shartnomalarning buzilishi, shartnoma shartlarining bajarilmasligi yoki taraflarning o'zaro majburiyatlarini bajarmasliklari natijasida ular o'rtasida kelib chiqadigan o'zaro hal qilinmagan masalalar sudda hal etiladi. Advokatlar bu holatlarda mijozlarning manfaatlarini himoya qilish uchun tegishli huquqiy asoslarni ko'rsatib, sudda qatnashadilar.



2. Mulk huquqlarining vujudga kelishi bilan bog'liq munosabatlar. Iqtisodiy sudlar mulk huquqlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu yerda ko'plab nizolar, ayniqsa, korxona mulkiga oid masalalar, masalan, ko'chmas mulkni ijaraga olish, mulkni sotish, mulkni tasarruf etish kabi holatlar yuzasidan yuzaga keladi. Advokatlar bu kabi jarayonlarda mijozlarning huquqlarini himoya qiladi, mulk huquqini qonuniy tarzda asoslab beradi va o'z pozitsiyasini asoslovchi dalillarni taqdim etadi.

3. Qarz munosabatlari bilan bog'liq nizolar. Iqtisodiy sudlar qarz majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash, bankrotlik va moliyaviy masalalar bo'yicha ham ko'plab ishlarni ko'rib chiqadi. Advokatlar kreditorlar yoki qarz oluvchilarning manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishadi, qarzlarning o'z vaqtida to'lanishini ta'minlashga harakat qilishadi. Bu masalalarda yuridik maslahatlar va to'lovlar jadvali, shuningdek, qarzlarni qaytarish bo'yicha sudga taqdim etiladigan hujjatlar muhim ahamiyatga ega.

4. Xalqaro iqtisodiy nizolar. Xalqaro savdo va investitsiyalar bilan bog'liq ishlar ham iqtisodiy sudlarda ko'riladi. Bunday nizolar asosan xorijiy kompaniyalar va mahalliy tadbirkorlar o'rtasida yuzaga keladi. Advokatlar xalqaro huquqni hisobga olib, mijozning huquqlarini himoya qilishadi va shartnoma asosida amalga oshirilgan nizolarni hal qilishda ko'maklashadilar.

5. Tijorat va korporativ nizolar: Iqtisodiy sudlar korporativ nizolarni, masalan, aksiyalarni taqsimlash, dividendlarni taqsimlash, aksiyadorlar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda ham ishtirok etadilar. Bunday holatlarda advokatlar o'z mijozlariga tijorat qonunchiligi, aksiyadorlar huquqlari va kompaniya boshqaruvining asosiy prinsiplari bo'yicha yuridik maslahatlar berishadi.

Shubhasiz, sud muhokamasi jarayonida yuridik bilimga ega bo'lgan mutaxassis — ya'ni advokatning ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Advokat nafaqat mijozning huquqlarini himoya qiladi, balki nizoning mohiyatini aniq ochib berish, huquqiy asoslarni



to'g'ri tushuntirish, va sudga dalillarni qonuniy tartibda taqdim etish orqali sud qarorining adolatli bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy sud jarayonida advokatning roli keng qamrovli bo'lib, u faqat da'vo arizalarini rasmiylashtirish yoki guvohlarni ishga jalb etish bilangina cheklanmaydi. Advokat – bu huquqiy jarayonning har bir bosqichida faol ishtirok etuvchi, mijoz manfaatlarini qonuniy yo'llar bilan himoya qiluvchi, va eng muhimi, adolatning qaror topishiga xizmat qiluvchi shaxsdir. Shu bois, iqtisodiy sudda advokatning ishtiroki masalasi zamonaviy sud amaliyotida alohida o'rinni egallaydi va chuqur o'rganishni talab etadi.

Advokatning mijoz huquqlarini himoya qilishdagi birinchi qadam — mijozning huquq va manfaatlarini aniq belgilab olish hisoblanadi. Mavjud iqtisodiy nizoda mijozning qaysi huquqlari buzilganini aniqlash va shu asosda himoya strategiyasini ishlab chiqish muhimdir. Bunda advokat quyidagi masalalarga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi:

- Mijozning asosiy talablarini tushunish
- Advokat, mijozning ish yuzasidan talablarini aniqlaydi va ularni huquqiy nuqtai nazardan asoslaydi. Iqtisodiy sudlarda ko'riladigan ishlar ko'p hollarda moliyaviy manfaatlarga asoslanadi. Advokat bu manfaatlarini tushunib, ularni himoya qilish uchun aniq strategiyalar ishlab chiqadi. Advokat, sudda mijozning huquqlarini himoya qilishda samarali himoya strategiyasini ishlab chiqishi kerak. Har bir iqtisodiy nizoning o'ziga xos jihatlari bo'lishi mumkin, shuning uchun har bir ishga individual yondashuv zarur. Advokatning strategiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:
- Ishni mijozning foydasi nuqtai nazaridan qonuniy asosda tahlil qilishda advokat, barcha mavjud qonuniy imkoniyatlarni tahlil qilib, mijozning foydasiga ish olib borishi lozim bo'ladi.



Advokatning asosiy maqsadi — mijozning huquqlarini himoya qilish bo‘lib, bu jarayonni faqat qonuniy asoslarda amalga oshirish zarur. Advokat hech qachon mijozning manfaatlarini noqonuniy yoki adolatga zid usullar bilan himoya qilmasligi kerak. Bu esa advokatning etik va yuridik majburiyatlaridan biridir. Advokat ishning barcha bosqichlarida o‘z mijozni nomidan harakat qila turib, uning manfaatlarini himoya qiladi. Sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin ham advokat mijoziga ushbu qaror mazmuni va mohiyati yuzasidan tushuntirish berar ekan, quyida sanab o‘tiladigan harakatlarni bajarishi zarur bo‘ladi. Hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin advokat tomonidan amalga oshiriladigan ishlar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. Hal qiluv qarorining ijrosini ta'minlashni so'rab vakolatli organga tegishli murojaat qilish - Advokat, sud tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorining ijrosini ta'minlash uchun kerakli barcha hujjatlarni tayyorlash va bajarilishini nazorat qilishni amalga oshiradi. Agar qaror bajarilmasa yoki unga nisbatan shubhalar yuzaga kelsa, advokat sudga qarorni majburan ijro etish uchun ariza yuborishi mumkin.
2. Ish bo'yicha apellyatsiya yoki kassatsiya arizalari tayyorlash - Agar bir tomon ish yuzasidan qabul qilingan hal qiluv qarorining natijasidan bilan rozi bo'lmasa va uning ustidan apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berishni xohlasalar, advokat mijozining manfaatlarini himoya qilish uchun yuqori instansiya sudlariga shikoyat matnini tayyorlashi va belgilangan muddatlardan kechiktirmasdanuni yuborishi lozim bo'ladi. Bu jarayonda, advokat birinchi instansiya sudining hal qiluv qaroriga nisbatan e'tirozlarini huquqiy asoslab, apellyatsiya yoki kassatsiya arizasini asoslashga harakat qiladi.
3. Ijro etish uchun sudga murojaat qilish - Agar qaror bo'yicha ijro harakatlari to'xtatilgan yoki uning ijrosini ta'minlash jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelayotgan bo'lsa, advokat bu haqida sudga murojaat qilish orqali ijro jarayonini boshlash yoki davom ettirishni talab



qilishi mumkin. Advokat qarorni ijro etish uchun qaror qabul qilgan sudga yoki boshqa ijro organlariga taqdim etishi mumkin.

4. Kelgusida qarshi tomon tarafidan kiritilishi mumkin bo'lgan ehtimoliy e'tirozlarga tayyorgarlik ko'rish - Hal qiluv qarori qabul qilingandan so'ng, agar tomonlardan biri qarorga nisbatan shikoyat berishga yoki yangi talablar kiritishga qaror qilsa, advokat bu jarayonni ham inobatga olishi va unga qarshi asoslarni shakllantirishi zarur bo'ladi.

Hal qiluv qarori qabul qilinishi bilan advokat mijozga yana bir bor huquqiy maslahatlar berishi, shuningdek, qarorni ijro etish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday yangi huquqiy masalalarda yordam ko'rsatishi mumkin.

Advokatning asosiy vazifasi — mijozning huquqlarini himoya qilish, qarorning to'liq va to'g'ri ijro etilishini ta'minlash va agar zarurat tug'ilsa, qarorni qayta ko'rib chiqish uchun huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.

Ish apellyatsiya tartibida ko'riladigan hollarda advokat tomonidan bajariladigan harakatlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Apellyatsiya arizasini tayyorlash va sudga taqdim etish - advokat, birinchi instansiya sudining hal qiluv qaroriga nisbatan apellyatsiya arizasini tayyorlaydi. Arizada, sud qaroriga nisbatan yuridik xatoliklar yoki borligini ko'rsatib, yuqori instansiya sudiga shikoyat qiladi. Apellyatsiya arizasiga kerakli hujjatlar, masalan, sudning birinchi instansiyasidagi qaror, dalillar va boshqa hujjatlar ilova qilinadi. Apellyatsiya arizasi belgilangan muddatda, odatda 10 kun ichida, sudga taqdim etilishi kerak.

2. Apellyatsiya arizasini asoslash - advokat apellyatsiya arizasini yozishda birinchi instansiya sudining qaroridagi huquqiy yoki faktik xatoliklarni aniq va asosli tarzda ko'rsatib o'tadi. Ushbu jarayonda advokatning vazifasi — sud qaroridagi noto'g'ri talqinlar, huquqiy me'yorlarning buzilishi yoki dalillarni noto'g'ri baholash kabi omillarni aniqlab,



apellyatsiya sudiga tushuntirish kiritishdir. Advokat arizasida o'z mijozining manfaatlarini himoya qilish uchun yangi dalillar yoki guvohlarni kiritish ham mumkin

3. Apellyatsiya jarayonida sudda ishtirok etish – ish apellyatsiya instansiyasida ko'rib chiqilayotganda advokat mijozining manfaatlarini himoya qilish uchun sudga qatnashadi. Sud muzokaralari davomida, advokat apellyatsiya arizasida keltirilgan dalil va hujjatlarni tushuntiradi. Apellyatsiya sudida taraflarning huquqiy pozitsiyalarini ifodalash va sudni o'z mijozining manfaatlariga mos qarorga undash uchun zarur huquqiy asoslarni taqdim etadi.

4. Apellyatsiya sudining qarori bilan tanishish - apellyatsiya sudining qarori e'lon qilingach, advokat mijozini sudning yangi qarori bilan tanishtiradi va u bilan kelajakda qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladi. Agar apellyatsiya sudining qarori mijozning foydasiga bo'lsa, advokat qarorni amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni tayyorlaydi. Agar apellyatsiya qarori mijozning zarariga bo'lsa, advokatning vazifasi — kassatsiya (yuqori instansiya) sudiga murojaat qilish yoki boshqa huquqiy yo'llar bilan o'z mijozining foydasiga qaror chiqarilishini ta'minlash kerak bo'ladi. Agar apellyatsiya sudining qarori mijozning manfaatlariga zid bo'lsa, advokat kassatsiya yoki yuqori instansiya sudiga shikoyat tayyorlashni ko'rib chiqadi. Bu jarayonda advokat, apellyatsiya sudining qaroridagi xatoliklarni qayta ko'rib chiqish uchun yuqori instansiya sudiga murojaat qiladi.

5. Yangi dalillar va guvohlarni tayyorlash - agar apellyatsiya instansiya sudida yangi dalillarni kiritish zarurati mavjud bo'lsa, advokat o'z mijozining manfaatlarini himoya qilish uchun sudga yangi guvohlarni chaqirish yoki qo'shimcha hujjatlar tayyorlashni o'ylab ko'rishi mumkin.

6. Mijozga maslahatlar berish - advokat, apellyatsiya jarayonida yuzaga kelgan yangi holatlar va qarorlar bo'yicha mijozga maslahatlar beradi. Advokat, apellyatsiya jarayonini, qarorning qanday chiqarilishini va keyingi qadamlar haqida mijozni xabardor qiladi.



Shu tarzda, advokat apellyatsiya jarayonida mijozning huquqlarini himoya qilish uchun barcha zarur yuridik harakatlarni amalga oshiradi, shu jumladan apellyatsiya arizalarini tayyorlash, sudga qatnashish va kerakli hujjatlarni taqdim etish orqali o'z mijozining manfaatlarini maksimal darajada himoya qilishga harakat qiladi.

Xulosa. Advokatning mijoz huquqlarini himoya qilish vazifasi iqtisodiy sud jarayonining har bir bosqichida amalga oshirilishi lozim. U sudga zarur huquqiy dalillarni taqdim etadi, samarali strategiya ishlab chiqadi va mijozni eng yaxshi natijaga erishish uchun yo'naltiradi. Buning natijasida advokat sud jarayonida muhim rol o'ynaydi va adolatli qaror qabul qilinishida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni.
4. Axmedov A.K. Iqtisodiy sud ishlarini yuritishning protsessual asoslari. – Toshkent: TDYuI nashriyoti, 2021.
5. Xudoyorov A. Sud tizimi va advokat ishtirokining huquqiy asoslari. – Toshkent: Yuridik adabiyot, 2020.
6. Qurbonov B.X. Fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha advokatlik faoliyati. – Toshkent: Adolat, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy veb-sayti – <https://www.supcourt.uz>
8. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi – <https://www.minjust.uz>
9. O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi – <https://www.advp.uz>